

XX ASR O‘ZBEKISTON DASTGOH RANGTASVIR SAN’ATI

Sh.B. Oydinov

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o‘qituvchisi.

sh.oydinov1972@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola, XX asr O‘zbekiston dastgoh rangtasvir san’ati ravnaqi haqida yozilgan. Unda Yevropaning ilg‘or tasviriy san’ati an‘analarini, rus va boshqa xalqlarning vakillari orqali O‘zbekiston san’atiga o‘ziga xos ta’siri va bu yangi bosqichning xarakteri haqida ma’lumotlar yoritilgan. Shuningdek turli uslub va yunalishlarning o‘ziga xos rivojlanishi, shu davr rassomlari va ularning ijod olamidagi rang-barang asarlari haqida ma’lumotlar berilgan. Mustaqillik davrida mafkuraviy nazoratni yo‘q qilinishi natijasida san’atda ro‘y bergan tub ijobiy o‘zgarishlar ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Tasviriy san’at, madaniyat, ma’naviyat, qadriyatlar, dastgohli rangtasvir, bo‘yoqlar, kompozisiya, natyurmort, manzara, janr, rus rassomlari, mahalliy rassomlar, Mustaqillik davri, O‘zbekiston, taraqqiyot, mafkuraviy nazorat, din, milliy urf odatlar, buyuklar merosi, ziyoliylar.

Аннотация. Данная научная статья посвящена расцвету станковой живописи Узбекистана в XX веке. В ней освещается влияние передовых традиций изобразительного искусства Европы, а также своеобразное воздействие представителей русской и других народных школ на развитие искусства Узбекистана и характер этого нового этапа. Кроме того, рассматриваются особенности развития различных стилей и направлений, а также приводятся сведения о художниках того времени и их разнообразных произведениях. Также раскрыты кардинальные положительные изменения в искусстве, произошедшие после устранения идеологического контроля в период независимости.

Ключевые слова: Изобразительное искусство, культура, духовность, ценности, станковая живопись, краски, композиция, натюрморт, пейзаж, жанр, русские художники, местные художники, период Независимости, Узбекистан, развитие, идеологический контроль, религия, национальные обычаи, наследие великих, интеллигенция.

Tasviriy san’at ibtidoiy jamoa davridan boshlab rivojlanganligi ma’lum. Insoniyat taraqqiyoti jarayonda tafakkur kamol topgan sari go‘zallik hissi ortdi. Keyinchalik turli xil shakl va tasvirlar orqali yozuv paydo bo‘la boshladi. Umuman tasviriy san’at rivojlanishi jarayonida o‘ziga xos bosqichlardan o‘tib kelmoqda. Tasviriy san’at namunalarini vujudga keltirishda har bir ijodkor o‘zgacha izlanib,

o‘zgacha mehnat qiladi. Ijodkorlar ichki kechinmalari va go‘zal olamini rang va chiziqlar hamda turli shakllar orqali ifodalashga harakat qiladilar.

Tasviriy san‘at asarlari dastgoh va monumental ko‘rinishlariga ega. Monumental asarlar hajm jihatidan bir necha barobar katta bo‘lib u turli xil binolar, ko‘cha va bog‘lar atrofida joylarga mo‘ljallab yaratiladi. Dastgoh deyilganda esa erkin ijodiy faoliyat tufayli yaratilgan asarlar tushuniladi. Oddiy qilib aytganda dastgoh rangtasvir asarlarini bir joydan boshqa joyga ko‘chirib o‘tkazish imkoni bor. Deylik bu asarlarni o‘quv xonasiga, turli tasviriy san‘at ko‘rgazmalariga, dam olish xonalariga va shu kabi boshqa xonalarga va joylarga qo‘yish mumkindir. Tasviriy san‘at turlaridan biri bu rangtasvirdir. **Rangli bo‘yoqlar yordamida tasvirlangan barcha tasvirlar ham rangtasvir bo‘lavermaydi. Rangtasvir san‘ati darajasida tasvirlar yaratish ijodkordan yetarli darajada bilim, ko‘nikma, malaka va tajribalar talab etiladi. Turli bo‘yoqdan kerakli rangni topib joyida ishlatish oson ish emas.** «Rangtasvir - asosan bo‘yoqlar vositasida matoga, devorga shuningdek, tekislik va yuzalarga ishlanadigan san‘at turidir. Tasvir mazmuni, xarakteri va shunga o‘xshash barcha xususiyatlari bo‘yoqlar orqali ifodalab berilsa rangtasvir san‘ati deb ataladi».¹ Shu o‘rinda aytib o‘tish lozimki XX-asarda o‘lkamiz rassomlari dastgohli rangtasvirda ijod etib san‘atimizni dunyoga mashhur etganlar.

XIX asr oxirgi choragining 80-yillariga kelib O‘rta Osiyo yerlari butunlay rus qo‘shinlari tomonidan bosib olgan yerlarida tasviriy san‘at o‘zining yangicha shakllanish davriga kirib keldi. Rossiya fevral-burjua inqilobi va undan keyin, oktabr to‘ntarishi mamlakatning madaniy hayotini butunlay o‘zgartirib yubordi. 1922-yildan keyin sovet hukumati tarkibida bo‘lgan O‘zbekistonda ham sovet turmush tarzi rivoj topib bordi. Xalqlarning fojiali damlari boshlandi. Bu fojia, ayniqsa, O‘rta Osiyo mintaqasidagi xalqlar boshiga misli ko‘rilmagan kulfatlarni keltirdi. O‘zbek xalqi ham bu borada o‘tmishidan, dinidan, qadriyatlaridan, milliy urf odatlaridan, buyuklar merosidan, ziyoliylaridan mahrum bo‘ldi. Bu davrda rus xalq vakillari va ularning turli kasb egalari O‘rta Osiyo yerlariga ko‘chib kela boshladi.

XIX asrning oxirlarida va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo, jumladan O‘zbekistonda san‘at ham o‘zining yangicha shakllanish davriga asta-sekin kirib kela boshladi. Asosan bu davr san‘atiga Yevropaning ilg‘or tasviriy san‘ati an‘analari rus va boshqa xalqlarning vakillari orqali o‘z ta‘sirini o‘tkazdi. Bu yangi bosqichning xarakteri haqida alohida to‘xtalish lozim. Miniaturaga xos ishlanish uslublari va qonuniyatlaridan farqli o‘laroq, Yevropa davlatlarida ancha ilg‘orlab ketgan uch o‘lchamlilik qonuniyatlari asosida rivojlangan bu tasviriy san‘at aynan o‘sha davrlarda bizning o‘lkamizda deyarli mavjud emas edi. Ajdodlarimizning san‘atga ixlosmand ilg‘or vakillari esa ko‘proq xalq amaliy bezak san‘ati bilan mashg‘ul bo‘lganlar.

¹ Ойдинов Н. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавҳалар. Тошкент “Ўқитувчи”, нашриёти, 1997. , 9-бет

O‘lkamiz tarixining ana shu pallasida rus va boshqa xalq vakillarining ta’siri rangtasvir san’atni o‘ziga xos ravnaq topishi uchun alohida ahamiyat kasb etdi. Asta-sekin mahalliy an’analar bilan uyg‘un rivojlangan tasviriy san’atimiz rivojiga M. Novikov, L. Bure, S. P. Yudin, I. S. Kazakov, N. V. Ryazanov, N. I. Grechaninov, T. N. Nikitin singari rassomlar katta hissa qo‘shishdi.

XX asrning birinchi yarmida ta’qib va to‘siqlarga qaramay, O‘zbekiston ijtimoiy va madaniy hayotida sezilarli siljishlar sodir bo‘ldi. 50-60 yillardan boshlab, o‘zbek tasviriy san’ati yangi pog‘onaga qadam qo‘yadi. Bu davrda milliy san’at xususiyatlarining yanada mustahkamlanishi, san’atda milliy o‘ziga xoslikni izlash bilan birga shaxsiy his-tuyg‘ularni ifodalashga o‘tib borilishi bilan xarakterlanadi. XIX asrning oxirgi choragi san’atda o‘ziga jiddiy o‘zgarishlar vujudga keladi. Ijod erkinligi san’atdagi izlanishlar turli uslub va yo‘nalishlarning rivojlanishiga olib keldi. Ayniqsa O‘zbekistonning mustaqillikka erishgan dastlabki yillaridan tasviriy san’atining mavzusi kengaydi. Eng avvalo milliy tarix bilan bog‘liq voqealar ko‘pchilik rassomlarni o‘ziga jalb etdi.

1910-1920 yillarda O‘zbekiston tasviriy san’atining rivojlanishi o‘ziga xos bosqichga to‘g‘ri keladi. Bu davrda ijod etgan rus rassomlaridan L. Bure, A. Volkov, A. Tatevosyanlarning ijodiy izlanishlari tasviriy san’atda munosib o‘rinni egallaydi? Rangtasvirida P. Benkov, A. Volkov, O. Tatevosyan, A. Nikolayev, O‘. Tansiqboyev, N. Karaxanlar faol ijod qilishdi. Ular yaratgan rangtasvir asarlarini tamosha qilar ekansiz milliy o‘ziga xoslikning turli ko‘rinishlari va holatlari ko‘zga tashlanadi.

Bu davrda tasviriy san’at tur va janrlari yanada rivoj topdi. “Ko‘p hollarda rassomlar naturadan olgan taassurotlarini hikoya qilishga berilib, kartinada shu to‘plagan taassurotlari yig‘indisini berishga e’tibor qaratilmagan. Bu o‘sha davr rangtasvirining xarakterli xususiyatidir. An’anaviy xalq turmushi ko‘pincha me’morlik, jonli, shovqin-suronli bozorlar, choyxonada osoyishta choy ichish fonida tasvirlanadi. Rassomlarni kishilar egnidagi sharq kiyim-kechagiga xos serhashamlilik va ranglarga boylik ko‘proq o‘ziga tortadi. Bu xususiyatlar A. Isupov, L. Bure, R. Vommer, I. Kazakov asarlarida ko‘rindi”².

1918-20 yillarda O‘zbekistonda san’atni targ‘ib etish, ko‘rgazmalar uyushtirish, muzeylarni milliylashtirish kabi ishlar amalga oshirildi. Toshkent, Samarqand shaharlarida badiiy maktablar ochildi. Ularga ko‘plab mahalliy yoshlar jalb etildi. Bunda rus va boshqa milliy rassomlar faol ishtirok etdi. Shu bilan birga o‘zbek xalq san’atini o‘rganish orqali rassomlar haqiqiy milliy san’at namunasini yaratishga, o‘z asarlarida davrning muhim voqealarini aks ettirishga harakat qildilar. Shunday rassomlardan biri O. K. Tatevosyan bo‘ldi. U rassom 1915 yil birinchi bor

² A. Egamberdiyev, S. Saidova, R. Rajabov. Tasviriy va me’morchilik san’ati tarixi. Toshkent “O‘qituvchi” “nashriyot-matbaa ijodiy, 2007•• 125 bet

O‘zbekistonga keldi. O‘zbekistonning serjilo tabiati, boy me‘morchilik yodgorliklari yosh rassomni o‘ziga mahliyo etdi. O‘zbekistonda o‘z ijodiy izlanishlari uchun katta imkoniyatlar borligini xis qilgan rassom, butunlay O‘zbekistonga ko‘chib keldi va o‘zining sermahsul ijodini boshladi, yosh rassomlarga murabbiylik qildi. Uning ilk ijodidagi asarlar asosan Samarqandga bag‘ishlangan.

1922- yillarda fan va san‘at borasida ham ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. Ziyolilar safi kengaydi, ularning qatoriga birinchi bor badiiy ziyolilarning katta guruhi kelib qo‘shildi. Ular san‘at orqali ijtimoiy masalalarni ko‘tarib chiqishga, sodir bo‘layotgan voqea va hodisalarni realistik san‘at tilida tasvirlashga kirishdilar. San‘atning tur va janrlari kengaydi, yangilari paydo bo‘ldi.

XIX asrning 20-30 yillariga kelib O‘zbekiston tasviriy san‘ati o‘ziga xos shakl-shamoyiliga ega bo‘la boshladi. Tasviriy san‘at maydonida A.Volkov, P.V. Kuznetsov, M. N. Kurzin, S.J. Finkelshteyn, N.G. Karaxan, V.I. Ufimsev, Usta Mo‘min (A. N. Nikolaev), N. Kashina, O.K. Tatovosyan, P.P. Benkov, S.M. Kovalevskaya, I. Ikromov, O‘. Tansiqboev, Ch. Ahmarov, L. Abdullayev kabi vakillarining badiiy tafakkuri milliy ruh bilan boyib yangidan-yangi estetik dunyoni kashf eta boshladi. Shu davrda xalq hayotining rang-barang tamonlari o‘ziga xos yorqin ifodasini tasviriy san‘atda ham topadi. “O‘zbek xalqining milliy an‘analarini jamlab o‘zbekona tasvirlay olgan rangtasvir ustasi Usta Mo‘min (asli ismi Aleksandr Vasilevich Nikolayev) ana shunday san‘at ustalaridan biri edi. U 1897 yil 30-avgustda Voronejda harbiy injener oilasida tavallud topgan. Taqdir taqozosi bilan yigirmanchi yillarda Samarqandga kelib yashaydi va mehnat faoliyatini davom ettiradi. U sobiq sovet davrida O‘zbekiston tasviriy san‘atini har tomonlama targ‘ib va tashviq qilishda samarali mehnat qilgan musavvirdir. ... Xalqimiz xarakteriga xos xususiyatlar ayniqsa “Bahor” (1923 yil) “Kuyov” (1923 yil), “Dutorchi bola” (1924 yil), “Choyxonachi (1928 yil) kabi asarlarida yaqqol aks etgan”³. Umuman, Usta Mo‘minning ijodida o‘zbek san‘atkorlariga xos an‘analar o‘z aksini to‘la-to‘kis topdi.

Ana shu yillarda erishilgan ijodiy muvaffaqiyatlar o‘z ta‘sirini keyingi avlodlarga ulashar ekan, natijada tasviriy san‘atda mahalliy vakillarning safi kengaya bordi. O‘, Tansiqboyev, Ch. Ahmarov, A. Abdullayev, M. Nabiyeu, L. Abdullayev, Sh. Hasanova, R. Temurov, X. Rahmonov, B. Hamdamiy, L. Nasriddinov va boshqa bir qator ijodkorlar yetishib chiqa boshladilar. Mana shu davrda bir qator rassomlarning yetuklik pillapoyasiga chiqishlarida ustozlik qilgan Nikolay Stepanovich Turkestanskiyning faoliyati ham diqqatga sazovordir. Bu ajoyib ustoz rassom o‘z davrida tasviriy san‘at sirlarini yoshlarga o‘rgatib, ko‘rgazmalar tashkil qildi.

“XX asr birinchi yarmi tasviriy san‘ati tarixida O‘zbekiston xalq rassomi Aleksandr Nikolaevich Volkovning ijodi bebaho qimmatga ega. A. Volkov 1886 yilda

³ Ойдинов Н. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавҳалар. Тошкент “Ўқитувчи”, нашриёти, 1997. , 54-55 бет

Farg‘onada tavallud topgan. U yaratgan asarlar badiiy qimmat, xarakteri jihatidan ham xalqimizga xos an‘analarni namoyish qiladi. Umuman, Volkov tasviriy san‘atda o‘zbekona maktab yarata oldi.”⁴. A. Volkov Markaziy Osiyo, jumladan, O‘zbekiston san‘ati me‘rosini o‘z davrida ma‘lum va mashhur bo‘lishida katta hissa qo‘shgan

Manzara janrining mahoratli ustasi akademik rassom O‘rol Tansiqboev butun hayoti va ijodiy faoliyatini O‘zbekiston tabiatini tasvirlashga bag‘ishlagan. U serquyosh o‘lkamiz tabiatini o‘tkir mo‘yqalamiga tayanib san‘atkorona tasvirlashi bilan tasviriy san‘at rivojiga benazir hissa qo‘shgan buyuk rassomdir. Rassom 1904-yil 4-mayda Toshkent shahridagi qozoq millatiga mansub oilada dunyoga keladi. Ilk bor maktabda rasm saboqlarini Yaroslav Fyodorovichdan o‘rgangan. Keyinchalik esa tasviriy san‘at sirlarini o‘zlashtirishda mashhur rus rassomi Repinning shogirdi Rozanovning ta’siri katta bo‘lgan. 1934-yilning avgust oyida Moskvada o‘tkazilgan o‘zbek rassomlari ko‘rgazmasida uning ijodiy asarlari o‘ziga xos ajralib turadi. Bu yerda rassomning “Ona ovulda”, “Ko‘chmanchilar manzili”, “Meva terish”, “Ozod ayol” kabi asarlari ko‘pchilikni o‘ziga jalb qildi. Keyingi izlanishlari “Sirdaryo” (1935), “Burchimulla” (1936), “Bog‘iston” (1937), “Tog‘ manzarasi” (1937), “Bahorgi ishlar” (1938), “Orol dengizi” (1939) va boshqa bir qancha tabiat manzarasini aks ettirgan eskiz va ranglovhalari uning mahorat cho‘qqisini egallaganligidan dalolat beradi.

Manzara janrining ana shunday yana bir ilg‘or vakili Nikolay Georgievich Karaxan hisoblanadi. Rassom o‘lkamiz tabiatida doimo sayr qilar va har bir faslning o‘ziga xos go‘zalliklarini serjilo ranglar bilan tasvirlab berishga intilar edi. 30-yillarda ishlagan “Qizlar hovuz bo‘yida”, “Uch mashshoq”, “Hovlida uzum uzish”, “To‘g‘on qurilishi”, “Bahor”, 1940-yillarda yaratgan “Xirmonchi qiz”, “Ona diyor”, “Nanay yo‘li” kabi manzaralari uning o‘ziga xos tasviriy san‘at ustasi ekanini isbotlaydi. Ayniqsa, 1957-yilda ishlangan “Oltin kuz” asari tabiatimizga xos go‘zallikni o‘ta mahorat bilan ko‘rsata olganligining namunasidir.

“30-yillarda P. Benkov bilan birgalikda N. Kashina, Z. Kovalevskayalar muvaffaqiyatli izlanishlar olib bordilar. Mahalliy rassomlardan A. Abdullayev, B. Hamdamiy, A. Toshkenboyev, Z. Saidnosirova, L. Abdullayev, R. Temurovlar o‘z izlanishlarini boshladilar. 40-yillarda tashviqot plakatlari va hajviy chizgilar “O‘zTAG oynasi”da bosilib chiqdi.

50-yillarda zamonaviy me‘morchilikka xos asarlar, manzara, portret, batal janridagi izlanishlar ko‘zga ko‘rina boshladi. Bu davr sankt-Peterburg Badiiy akademiyasini bitirib kelgan mahalliy rassomlar R. Ahmedov, M. Saidov, N.

⁴ Ойдинов Н. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавҳалар. Тошкент “Ўқитувчи”, нашриёти, 1997. , 55-56 бет

Qo‘ziboyev, shuningdek Z. Inog‘omovlarning ijodiy faoliyati bilan bog‘liq”⁵. Bu davrda yaratilgan rassom M. Sayidovning “Tong” nomli rangtasviri diqqatga sazovardir. Kartinada davr ruhiyati yaqqol aks etgan.

1941-1945 yillardagi bo‘lib o‘tgan ikkinchi jahon urushi O‘zbekiston san‘ati taqdiriga ham ta‘sir etmay qolmadi. Bu murakkab va tarixiy davrda O‘zbekiston rassomlari o‘z ijodlarida urushga harbiy mavzularga jiddiy e‘tibor qaratdilar Ikkinchi jahon urushida ishtirok etgan mahalliy rassomlardan Hikmat Rahmonov, Samig‘ Abdullaevlar bir qo‘lida mo‘yqalam, bir qo‘lida qurol ushlab faoliyat yuritishgan. Iste‘dodli san‘at ustalaridan B. Hamdamiy va L. Nasriddinovlar, afsuski, frontdan qaytishmadi.

“1947 yilda Toshkentda 1917 yil inqilobining 30 yilligiga bag‘ishlangan ko‘rgazma bo‘lib o‘tdi va 200 dan ortiq, rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika asarlari namoyish etildi, ularning aksariyati o‘tgan urush mavzusini aks ettirgan. Ko‘rgazma Turkistonda bolsheviklar hokimiyatining o‘rnatilishiga bag‘ishlangan bo‘lib, ... asarlar urush yillari va bu qonli urushdagi g‘alaba mavzusiga bag‘ishlangan edi. Urushdan keyingi davrda yaratilgan asarlarning asosiy g‘oyalari-SSSRning urushdagi zafarlari, barcha yutuqlar omili bo‘lgan xalq va partiyaning birligi va urush qahramonlarni qadrlash bo‘lgan. Bir qator asarlarda urushdan keyingi xayot syujetlari, urush maydonlaridan qaytgan jangchilar bilan uchrashish va yangi xayotni tiklash quvonchi yetkazildi”⁶. Shu narsa yana e‘tiborga molikki, aynan ikkinchi jahon urushi yillarida o‘nlab mashhur san‘at ustalari Rossiya, Ukraina va boshqa joylardan O‘zbekistonga kelishdi. Natijada ularning ijodiy yutuqlari, uslublari mahalliy san‘at vakillariga ta‘sirini o‘tkazdi. 50-yillarga kelib bir qator o‘zbek rassomlari ijodida ham yangi-yangi asarlar yuzaga kela boshladi.

O‘zbekiston xalq rassomi Abdulhaq Abdullaev 1918 yilda Turkistonda tavallud topgan. U portret san‘ati ustasi sifatida tanilgan bo‘lib, uning asarlari chuqur ruhiy kayfiyatni aks ettirishi bilan ajralib turadi. Bu borada ayniqsa, mashhur o‘zbek aktyori Abror Hidoyatovning Otello rolidagi portreti (1946) e‘tiborga molik. Abdulhaq Abdullaev portret yaratishda obrazning ichki qiyofasini ko‘rsata olishi bilan alohida ajralib turadi. Rassom “Oybek portreti” (1949), “Nazarali “Niyozov” (1949), “Onam portreti” (1952), “Indira Gandi” surati (1957), “Buvi bilan nabira” (1960), “Rassom Chingiz Ahmarov” kabi o‘nlab bebaho asarlar muallifidir.

Yil sayin tasviriy san‘at sohasiga bir qator yangi-yangi asarlar kirib kela boshladi. Mahalliy rassomlardan Rashid Temurov, Sapog‘ Muhammedov, Zokir Inog‘omov,

⁵ A. Egamberdiyev, S. Saidova, R. Rajabov. Tasviriy va me‘morchilik san‘ati tarixi. Toshkent “O‘qituvchi”
“nashriyot-matbaa ijodiy, 2007•, 125-bet.

⁶ Акбар Ҳакимов. Ўзбекистон санъати тарихи. Тошкент “Зилол булоқ” нашриёти, 2022. 406-bet

Rahim Ahmedov, Mannon Saidov kabi ijodkorlarning faoliyati kengroq koʻzga tashlana boshlaydi. Manzara janrida R. Temurov, Z. Inogʻomovlar ijodiy muvaffaqiyatlar qozondi. R. Ahmedovning tematik kompozitsiyalari, natyurmort va bir qancha portretlari tomoshabinlar qalbiga yoqimli kayfiyat ulashdi. Rahim Ahmedovning ijodidagi oʻziga xoslik izlanish oʻzbek tasviriy sanʼatida alohida bir maktab boʻlib shakllangan.

Oʻzbekiston xalq rassomi, professor. Malik Nabiyeu 1916 yilda Toshkent shahrida tugʻilgan. Malik Nabiyeu tasviriy sanʼatning ilk saboqlarini rassom Bahrom Hamdamiydan oʻrganadi. Yoshligidan tarixiy mavzularga boʻlgan qiziqish va harakatlari zoe ketmadi. Vaqtlar oʻtishi bilan rassomning tarixdan hikoya qiluvchi ranglavha, chizma-tasvir va kichik kompozitsiyalari katta-katta polotnolarga aylandi. 1949 yili Beruniy vafotining 900 yilligi munosabati bilan olim portretini yaratish uchun konkurs eʼlon qilinadi. Shu tanlovda Malik Nabiyeu ham qatnashdi. Musavvirning asarlaridagi buyuk olim obrazi boshqa rassomlar tamonidan ishlangan namunalarga nisbatan toʻlaqonli, deb eʼtirof etiladi.

XX asrning ikkinchi yarmi Oʻzbekiston sanʼatida rassomlar turli ramziy obraz va shartli belgilardan, rang, shakl, chiziq, faktura imkoniyatlaridan unumliroq foydalanishga harakat qiladilar. “Bu izlanish va tajribalar 50-yillarning oxiri, 60-yillarda sanʼat olamiga kirib kelgan, professional taʼlimni Moskva, Peterburg, Toshkent oliygohlarida olgan ijodkorlar belgilaydilar. Oʻz ijodini ancha ilgari boshlagan sanʼat ahli ijodida ham gʻoyaviy–plastik oʻzgarishlar sezila boshlaydi. Bu davr izlanishlari milliy va jahon madaniy merosini qayta baholash, undan davrga mos yoʻnalishlarni qoʻllash imkoniyatlarini qidiradilar. Antik dunyo, oʻrta asrlar madaniyati, Uygʻonish davri sanʼati anʼanalari rassomlarni oʻziga tortdi. Shu bilan birga XX asr sanʼatida sodir boʻlgan jarayonlar ham rassomlar nazaridan chekkada qolmadi. Bu yillarda oʻzbek sanʼatining yangi tur va janrlari rivojlandi”⁷. XX asrning ikkinchi yarmida tasviriy sanʼat olamida kirib kelgan taniqli ijodkor moʻyqalam sohiblari Oʻrol Tansiqboev, Nikalay Karaxan, Malik Nabiyeu, Mannon Saidov, Gʻofur Abdurahmonov, Bahodir Jalolov, Javlon Umarbekov, Alisher Mirzaev, Akmal Ikromjonov, Temur Saʼdullaev kabi koʻplab ijodkorlar faoliyati haqida fikr yuritish mumkin.

Bu dabrga kelib zabardast moʻyqalam sohibi Oʻrol Tansiqboev “Issiq koʻlda kech”, “Taxiatosh” (1951), “Qoraqum suv ombori” (1957) kabi asarlarini zamon ruhiyatiga mos ravishda yarata oldi. 60-yillarda ham oʻnlab shunday rang-barang asarlar yaratdiki, ular tasviriy sanʼat tarixiga durdona namunalar boʻlib kirdi. “Qoraqum GESi tongi” (1957), “Oʻzbekistonda mart” (1958), “Ala-tov” (1960),

⁷ N. Abdullayev. Oʻzbekiston sanʼati tarixi. “Oʻzbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti”, 2007.,

“Angrendagi tog‘ yo‘li” (1962), “Angren daryo” (1963), “Tungi tog‘ qishlog‘i” (1962), “Kech” (1971) kabi bir qancha asarlari kishini tabiat manzarasiga sayr qildiradi. 1972-yilda yaratgan “Mening qo‘shig‘im” polotnosi dovrug‘ topdi. “Mening qo‘shig‘im” kartinasi musavvir umrining so‘nggi yillarida yaratilgan. Shuning uchun ham ushbu ajoyib manzarada rassomning butun ijodiy mehnati, hayot yo‘li mujassamlashgandek ko‘rinadi.

1973-yilda Beruniy tavalludiga 1000 yil to‘lishi munosabati bilan ikkinchi marotaba konkurs e‘lon qilinadi. Malik Nabiyev Beruniy obrazi ustida izlanishni davom ettirib va nihoyat ikkinchi marotaba ham konkurs g‘olibi bo‘ldi. Rassom ilm sirlarini yechish uchun butun vujudi bilan kirishgan insonparvar olim Abu Rayhon Beruniyning obrazini gavdalantiradi.

Shuningdek rassomning ko‘plab portretlarida buyuk siymolar obrazi zamonaga hamohang darajada gavdalanganligini ko‘ramiz. Beruniy, Bobur, Ibn Sino, Jomiy va Navoiy, Al Roziy, Rudakiy, Al Xorazmiy kabi bir qancha yirik arboblari, olim, shoir, mutafakkirlarning obrazlarini jonli tasvirlaydi. Tarixiy mavzudagi “XVII asrdagi Samarqandda hunarmandlar qo‘zg‘oloni”, “Jizzaxdagi 16-yilgi qo‘zg‘olon” deb nomlangan kartinalari ham diqqatga sazovor.

Bu davrda Malik Nabiyev kabi yetuk musavvirlarni ijod qildilar. Ulardan O‘ral Tansiqbaev, Abdulhaq Abdullaev, Rahim Ahmedov, Javlon Umarbekov, Mannon Sayidov, Laylo Salimjonova, Bahodir Jalolov, Alisher Mirzaev, G‘ofir Abdurahmonov, Nuriddin Kalonov, Asliddin Isaev kabi va boshqa rassomlarni aytish mumkin.

Dastgohli rangtasvir san‘atining atoqli vakillaridan yana biri, san‘at arbobi, professor, Mannon Abdusamadovich Sayidov 1923-yili Toshkent shahrida tavallud topgan. Rassomning “Askiya” mavzusiga bag‘ishlangan bir nechta asarlari bo‘lib, unda o‘zbek xalqiga xos samimiy kulgi ishqibozlarining ma‘naviy qiyofasi o‘z aksini topgan. 1973-yilda ishlangan mana shu kartinada choyxonada hazil-mutoiba qilib o‘tirgan o‘zbek kishilarining xatti-harakatlari, sho‘x qahqahalari rassom tomonidan ustalik bilan tasvirlanganini ko‘ramiz. Mannon Saidov xalqimizning mehnatkash kishilarini, tarixiy voqealarni, O‘zbekiston tabiatini rang-barang ko‘rinishda tasvirlab muvaffaqiyat qozondi. Bu o‘rinda ayniqsa “Oila”, “Askiya”, “Xumson”, “Uzum terishda”, “Kattaqo‘rg‘onlik paxtakorlar”, “Tog‘ manzarasi”, “Hosil” kabi o‘nlab asarlarini misol keltirish mumkin.

O‘zbekiston xalq rassomi. Rangtasvir san‘atida ulkan muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritgan iste‘dod egasi Javlon Umarbekov 1946 yilda Toshkent shahrida tavallud topgan. San‘atkor ijodining dastlabki namunalaridayoq sharqona ruh yaqqol ko‘zga tashlanadi. Buning zahirida musavvirning sharq an‘analarini puxta o‘rganganligini ko‘ramiz. “Husayn Boyqaro va Alisher Navoiyning yoshligi”ga bag‘ishlangan, 1968 yilda yaratilgan asarida ikki do‘stning sharqona obrazini tasvirlaydi. Bu borada

o‘zining katta mahorat egasi, shuningdek, rangtasvir san’atining chinakam ustasi ekanini namoyon qila olgan. Rassom “Suvga” (1975), “Yoz” (1976), “Birinchi qor” (1977), “Oltin natyurmort”, “Avtoportret” (1975), “Suvga kelayotgan ayol” kabi asarlarida rangtasvir san’atining ilg‘or zamonaviy an‘analarini mukammal egallay boshlagani aniq ko‘zga tashlanadi.

O‘zbekiston xalq rassomi, Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofotining sovrindori Bahodir Jalolov zamonaviy rangtasvir san’ati rivojiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan taniqli rassomlardan biridir. Bahodir Jalolov 1948 yilda Toshkent shahrida tavallud topgan. Yoshlik yillarida portret san’atining ustasi Abdulhaq Abdullaevdan ta’lim oladi. Bahodir Jalolov portret san’atida ko‘p yutuqlarga erishdi. Uning to‘laqonli asarlarida o‘zbek xalqining sevimli farzandlari siymosi o‘z ifodasini topgan. Bu o‘rinda ayniqsa, akademik rassom O‘rol Tansiqboev, buyuk olim, akademik Vohid Zohidov, Komil Yormatov, Malik Qayumov, Muhitdin Rahimov, Hamro Rahimova, Akrom Toshkanboev, Damir Ro‘ziboev kabi ulug‘lar siymosi bunga misol bo‘la oladi.

O‘zbekiston xalq rassomi taniqli rangtasvir ustasi, Akmal Ikromjonov o‘z fikr va g‘oyalariga ega bo‘la olgan talantli rassomdir. Uning ijodiga nazar tashlar ekanmiz, davr ruhi, davr kayfiyati, quvonchi-yu tashvishlari namoyon bo‘layotganini ko‘ramiz. Rassom 1952 yil Toshkent shahrida tavallud topgan. U o‘z davrining achchiq qismatlarini bir necha kompozitsiyalarda mahorat bilan ko‘rsata olgan. Ayniqsa “Orol mening dardim” (1988), “Hisor fojiasi” (1989), “Chaqmoq”(1989) kabi asarlarida o‘z davrining murakkab muammolarini aks ettiribgina qolmasdan, tabiatga, insoniyatga mehr-shafqat, adolatparvarlik zarurligini ta’kidlaydi.

XX asr oxirlari O‘zbekiston tasviriy san’atida xotin–qizlar ijodining ham o‘z o‘rni bor. Mo‘yqalamining sehri bilan barakali ijod qilib, milliy asarlar yarata olgan shunday ajoyib istedodli rassomlardan biri Nodira Oripovadir. “Nodira Oripova ijodida Sharq ayollari dunyosi keng o‘rin olgan. “Ko‘ksaroy go‘zallari”, “Afrosiyobli farishtalar”, “Dilbar”, “aylo” va boshqalarda qahramonlari ichki ruhiy dunyosini ziyraklik bilan tasvirlagan. Bu ayollar qismati, taqdirini o‘z fikrlash prizmasidan o‘tkazib tasvirlaydi.

Rangni his qilishi, chizgilar yordamida keskin ifodaviy uslubi kartina sathida o‘ziga xos muhit yaratadi. U nozik nafosat bilan kishilar kayfiyatini ilg‘ab oladi. Ular hayoti tarzini asarlarida yaratadi. Voqelikni qabul qilishdagi o‘ziga xoslik, musavvir qalbidagi taassurotlar “Muza”, “Sumbula”, “Kuz qo‘shig‘i” va boshqalarda o‘z aksini topgan”⁸.

1991-yil O‘zbekistonning mustaqillikni qo‘lga kiritishi san’atda ham yangi

⁸ A. Egamberdiyev, S. Saidova, R. Rajabov. Tasviriy va me‘morchilik san’ati tarixi. Toshkent “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy, 2007., 129 -bet.

davrini boshlab berdi. Muhimi, san’atda mafkuraviy nazorat bekor qilindi. Buning natijasida ijod erkinligini qo’lga kiritgan rassomlar uslubiy rang-baranglikda asarlar yarata boshladilar. 1997-yili O‘zbekiston Badiiy akademiasining tashkil etilishi esa shu jarayonni yanada tezlashishiga sabab bo’ldi. Bu yillarida Vatanimizning mo’vqalam sohiblari, amaliy san’at ustalari va haykaltaroshlar ko’pgina ko’rgazmalarda faol ishtirok etib, tasviriy va amaliy san’atimizni yanada kengroq namoyish etdilar. Ijodiy erkinlik tasviriy san’atdagi o’ziga xos izlanishlar, turli uslub va yo’nalishlarning rivojlanishiga sabab bo’ldi. Birinchi bor xalq qahramonlari Alpomish, Spitamen, Goro’g’li siymolari ana shu mustaqillik yillarida yaratildi. Amir Temur hukmronlik qilgan davri malikalari qiyofasi tasviriy san’atda o’z aksini topdi. Ayniqsa tarixy janrda bir qator rang-barang asar yaratildi. Temur va temuriylar davri tarixiy shaxslariga atab hamda Zardusht, To’maris, Alpomish, Spitamen siymolari yaratildi, qatag’onga uchragan yozuvchi, shoir va boshqa ziyolilarning portretlari yaratildi.

O‘zbek xalqining fojiali damlarida, siyosiy ta’qiblarga qaramay XX – asr boshlaridan, to 90 - yillarga qadar tasviriy san’at o’ziga xos tarzda rivojlandi. XX asr boshlarida O‘zbekiston san’ati o’zining yangicha shakllanish davriga asta-sekin kirib kela boshladi. XX asrning ikkinchi yarmida qator istedadli ijodkorlar yetishib chiqdilar. Ular san’at olamida o’ziga xos jihatdan ta’sirli iz qoldirdilar. Bu davrning muhim tamonlaridan biri O‘zbekistonning mustaqillikni qo’lga kiritilganligi bilan bog’liq bo’ldi. San’atda mafkuraviy nazoratning bekor qilinishi ayniqsa keyingi davr tasviriy san’atning taraqqiyoti rivojida muhim rol o’ynadi. Tarix zarvaraqlariga nazar tashlar ekanmiz XX – asarda O‘zbekiston mo’vqalam sohiblari dastgohli rangtasvir san’atiga misli ko’rilmagan darajada hissa qo’shganliklarini guvohi bo’lamiz.

Adabiyotlar:

1. Ойдинов Н. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавҳалар. Тошкент “Ўқитувчи”, нашриёти, 1997. , 9-бет
2. A. Egamberdiyev, S. Saidova, R. Rajabov. Tasviriy va me’morchilik san’ati tarixi. Toshkent “O’qituvchi” “nashriyot-matbaa ijodiy, 2007., 125 bet
3. Акбар Ҳакимов. Ўзбекистон санъати тарихи. Тошкент “Зилол булоқ” нашриёти, 2022. 406-bet
4. N. Abdullayev. O‘zbekiston san’ati tarixi. “O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti”, 2007., 179 -bet.
5. Oyidinov N. Rassom-o’qituvchilarni tayyorlash muammolari. Toshkent, “O’qituvchi”, 1997 y.
6. S. Abdirasilov, N. Tolipov. Rangtasvir. Toshkent, “Bilim” nashriyoti, 2005 y.
7. Hasanov R. Tasviriy san’at asoslari. Toshkent, G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa – ijodiy uyi, 2009 y.
8. Sh. Oyidinov. Tasviriy san’at tarixi, Samarqand “SamDU Tahririy nashriyot bo’limi bosmaxonasi”, 2023.